

## ITALIAN TILI LEKSIKASI: SINONIMIK JUFTLIK LARNING MA'NO VA KONTEKSTI

*Xodjiyeva Gulchehra Norovna*

*SAMDCHTI*

*Ispan Italian kafedrası o'qituvchisi*

*Sayfullayeva Farida*

*SAMDCHTI*

*Italian tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada italian va o'zbek tilidagi sinonimik juftliklar haqida tushuncha va vazifalarni o'rganishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Leksikaloziya, sinonimik juftliklar, ma'no va kontekst, semalar.

Tilimizda so'zlarning ma'no va mazmun jihatidan o'rganish, tadbiiq qilish leksikalogiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Leksikologiya (yunoncha “lexikos”-lug'atga oid va “logos”-ta'limot) tilshunoslikning lug'aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo'limidir. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz xolda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantica etimologiya, stilistika hamda so'z yasalishi haqidagi ta'limot sohalari bilan chambarchas bog'liq. Leksikalogiyada so'zlarning ma'no jihatdan o'zaro bog'langan, ya'ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, anatonimiya so'z ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda bo'lishi kabi masalalari ham o'rganiladi[1].

So'zlarning leksik ma'nosi to'g'risida gap borganda dastlab ularning tildagi ma'nolari bilan nutqdagi ma'nolarini anglash, farqlash zarur. So'zlarning ma'nosi umumlashtirish xususiyatiga ega bo'lib, bu xususiyat tilga oid ma'no yoki lug'aviy ma'no deyiladi. So'zlarning aniq muayyan ma'nolari faqat nutqda aniq bo'ladi.

Leksik ma'no narsa va hodisalar munosabatiga ko'ra quydagi turga ajratishi mumkin.

•**ATASH MA'NOSI:** So'zlarning tildagi asosiy vazifasi tushuniladi. Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar eshitilganda, kishi ko'z o'ngida angelayotgan narsa gavidalanadi; ayiq, fil, ko'rsatish ma'nosi hamma so'zlar ham atash ma'nosiga ega emas. Ayrim so'zlar faqat narsa va hodisalarni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Masalan :O'zbek tilidagi u, bu, shu, Italian tilidagi questa, quello kabilar.

•**TO'G'RI MA'NO:** Bevosita atalayotgan narsa va hodisani bildiradi; tog', daraxt, suv va boshqalar.

•**KO’CHMA MA’NO:** Har qanday so’zning ma’nosi bir necha kichik ma’nolardan tashkil topadi.

Masalan :Tulki so’zi yovvoyi yirtqich, chiroyli, ayyor, sut emizuvchi va boshqa semalardan (ma’no elimentlari,ya’ni so’zning ma’nosini tashkil etuvchi eng kichik birlik.Semalar orqali so’zning umumiy va aniq ma’no jihatlari aniqlanadi.

Misol: “ *Qiz* ”.1-“ *inson* ”(umumiy tushuncha ).

2- “ *Ayol jinsi* ”(aniq tavsif) .

3 – “ *yosh* ” (qo’shimcha belgi)lardan tashkil topgan.

Ba’zan ana shu ma’nolardan biri yetakchi qilib olinib, uni shaxs yoki narsaga nisbatan ham ishlatiladi.

Masalan :Odamga nisbatan tulki deyilsa, bu odamning ayyorligi nazarda tutiladi. Bu so’zlar ko’chma ma’noda ishlatilishidir[2]. Leksik ma’nolarning semalari haqida yana bir misol ko’radigan bo’lsak ,H .Jamolovning semalarning necha turga bo’lganini ko’rishimiz mumkin .Leksik ma’no leksemaning mazmun planidagi yaxlit bir semantik butunlik bo’lsada, keyingi vaqtlarda bu butunlik tarkibida ma’lum ma’no qismlari – semalar borligini aniqlanmoqda.

Masalan:*daraxt* leksemasining leksik ma’nosida quyidagi semalar borligini ko’ramiz :

1)*predmet*;

2)*o’simlik* ;

3)*ko’p yillik o’simlik* ;

4) *yerda o’suvchi*;

5) *yog’ochlashgan tanali*;

6) *ildizli* ;

7) *shox-shabbali*;

8) *bargli*.

Bu semalar birlashib , *daraxt* leksemasining leksik ma’nosini shakllantiradi.Leksik ma’noning semasiologiyada *semema* deyilishi ham shundan [3].

Ma’noning o’zgarishi so’z tarkibidagi biror tovushning tushishi yoki ortishi bilan bog’liq holda ham yuz beradi. Masalan: Bolalar shaklida faqat ko’plik ifodalansa ,uning bollar shaklida esa ham ko’plik, ham oila ( xotin ) ma’nosi ifodalana oladi . Ko’rib turibmizki so’zlarning gapda qanday ma’no anglatishiga qarab turlicha tushinilishi mumkin[4].

Asosiy ma’nosi bir xil bo’lgan ikki yoki undan ortiq leksemalar sinonimlar deyiladi. Biroq haqiqiy sinonimlar mavjud emasligi tan olinadi.Ba’zan bir xil shakldagi variantlar (devo-debbo) va umumiy so’z va texnik atama o’rtasidagi ma’lum almashinuvlar uchun istisno qilinadi.Biz qisman sinonimiya haqida gapirishimiz mumkin lekin almashinuv faqat ba’zi kontekstlarda sodir bo’lishi mumkin.

Masalan : “parte-tutto”. La signora apprende la notizia (xonim yangiliklarni bilib oladi ) va La signora sa la notizia (xonim yangiiklarni biladi) [5].

Sinonimlar nutqimizni obrazli qilib, tilni boyitadi. Sinonimlar turli funksional uslublarga boy bo’lib, kitobxonga o’qish jarayonida bir so’zning har xil tuzilishda lekin aynan bir ma’noda ta’sirli obrazlarni ruhan his qilishda yordam beradi. Matnda terminlarning faoliyatini o’rganish uchun “kontekst “tushunchasi muhim ahamiyatga ega. So’zning konteksti – bu grammatik shakllar va tuzilmalar majmui hisoblanadi[6].

Matn grammatik jihatdan noto’g’ri bo’lishi mumkin, ammo o’quvchi baribir uning mazmunini tushunadi . Bu shuni ko’rsatadiki, matndagi asosiy rol ni leksik tarkib o’ynaydi [7]. Aksincha grammatik asos kuchliroq bo’lgan joyda, agar gap grammatik jihatdan nogo’g’ri bo’lsa, unda mazmunini anglash qiyinlashadi. Til amaliyotida mustahkamkangan va kontekstdan qat’i nazar konseptul makrokampanet tarkibida umumiy semalarga ega bo’lgan sinonimlar lingvistik deyiladi: qizil, yorqin qizil , qip-qizil va hokazolar. Bunday so’zlar qaysi kontekstda ishlatilishidan qat’i nazar, har doim sinonim bo’lib qoladi. Nutq yoki kontekstli sinonimlar faqat ma’lum matndagi ma’nolarning yaqinligini ochib beradi. Mutlaqo boshqa tushunchalar sinonimik munosabatlarga kirishishi, bir narsani anglatishi va ma’lum bir kontekstda bir-birini erkin almashishi mumkin faqat o’z doirasida.

Masalan: *Dare pane al pane = giustezia-( adolat )*

*Vino al vino = giustezia – (adolat).*

*Letto - yotoq, ikkinchi ma’no – leggere-o’qimoq* fe’li participio passato-letto. Buni yonidagi so’zlari orqali yoki gapdagi ma’noga qarab ajratishimiz mumkin bo’ladi.

Italian tilida hamda o’zbek tilida sinonimiya hodisalarining qo’llanilishi o’rtasida umumiy bo’g’liqliklar mavjud . So’zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda ular o’rtasidagi bog’liqlik keskin darajada farq qilmaydi. Xulosa qilib aytganda umumiyliklar borligi sabab, Italian tilida sinonimlarni taqqoslab organishda qiyinchiliklarga duch kelmaymiz.

#### ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. M.Mirzayev, C.Usmanov, Rasulov O’zbek tili. T.,”O’qituvchi”1978.
2. O.Azimov. “Tilshunoslikka kirish” . T.-1963.
3. Maurizio Dardone e Pietro Trefino. Grammatica Italiana con nazioni di linguistica .b.21.1.2.5.3-(abz-5 )
4. Blagova .N.G.” Вопросы семантики “Kalelingrad , 1978.-c .80-89.
5. H.Jamolxonov “ Hozirgi o’zbek adabiy tili “, Toshkent- “ Talqin “ -2005 ,b. 148 .
6. Aminjon Mamatov . “O’zbek tili leksikologiyasidan materiallar “. Toshkent-2009.b. 211.

Qo’shimcha elektron adabiyotlar ro’yxati :

7. Ro’ziqulova .G. F. [www.docviewer.uz](http://www.docviewer.uz)